

YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOY ADOLATNI TA'MINLASHGA QARATILGAN ISLOHOTLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Hamroyev Saidjon Sanoyevich

Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7965867>

Mamlakatimiz mustaqilligining 31 yillik tarixi davomida asrlarga teng yo'llar bosib o'tildi. Istiqlool yillarida erishgan yutuqlarimiz millatimizda qalblarimizni g'urur-iftixorni ma'lum ma'noda shakllantirdi. Mamlakatimizning o'ziga xos taraqqiyot yo'li, amalga oshirilgan islohotlar, ustuvor vazifa va modernizasiya jarayonlari mazkur yo'lni taraqqiyotga asoslanganligini, uni amalga oshirish, o'ta og'ir va murakkab sharoitlarda xalqimiz hayotida tinch-totuv va farovonligini ta'minlanganini ko'rish mumkin.

Siyosatdagi pragmatizm mavjud imkoniyatlarni yuzaga chiqara olish, ularni izchil tizimli ko'paytirib borish, jamiyatni aniq maqsad yo'lida jipslashtirish, bor kuch va mablag'larni oqilona safarbar etishdan iborat. O'sha davrda aholining ijtimoiy – sinfiy tarkibi turli qatlamlar, tabaqalar va guruhlardan iborat edi. Jamiyatdagi keskin burilishlar, tub o'zgarishlar sodir bo'layotgan davrda manfaatlardagi farqlarni yuzaga olib chiqishi mumkin. Ular orasida turli ziddiyatlarning kuchayib ketmasligi uchun davlat boshqaruvi har qanday ko'rinishdagi ijtimoiy adolat buzilishining oldini olishi zarur. Aholining tarixiy turmush va tafakkuri, an'analari va urf – odatlari xalqning ongi, mentaliteti o'ziga xosligini tarannum etadi.

Maqsadli ijtimoiy himoya haqiqatdan ham adolatli va aniq olib borilishi uchun fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari yordamidan foydalanish maqsadga muvofiq. Mahalla fuqarolar yig'inlari asta-sekin ijtimoiy himoya masalalarini o'z qo'liga oladi.

O'zbekistonda davlat bosh islohotchi sifatida, bir tomondan, islohotlarning huquqiy bazasini izchil rivojlantirdi, tegishli qonunlar, qonunosti hujjatlarini qabul qildi. Ikkinchi tomondan, islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilab, asosiy resurslarni ularga yo'naltirdi. Bu islohotlar jarayonida uzilishlar yoki boshboshdoqlilkar yuz berishining oldini oldi, izchillikni ta'minladi. SHuningdek, davlat kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish masalalari bilan bevosita o'zi ham shug'ullandi, korxona va tashkilotlarga ham bu masalada yordam berdi. Xorij mamlakatlari va kompaniyalari bilan ushbu masalalar bo'yicha ham muzoqaralar o'tqazdi va h.k.

Davlat nafaqat iqtisodiyot, ijtimoiy va ma'naviy-madaniy sohalarda islohotlarga bosh bo'ldi, shuningdek; u o'z-o'zini va jamiyatni ham isloh qilishning bosh tashabbuskori bo'ldi. Bu islohotlar talablariga mos davlat va jamiyat institutlarining yangilarini shakllantirishda, ularga oyoqqa turib olishga yordam berishda yaqqol namoyon bo'ldi.

Qonunustuvorligi tamoyili ijtimoiy adolatni ta'minlashga, mamlakatda, jamiyatda o'tkazilayotgan islohotlar, har bir o'zgarish, islohot qatnashchilarining faoliyati, davlat idoralari, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, jamoat tashkilotlari, fuqarolar faoliyati qonunga mos bo'lishi lozimligini, o'z navbatida, qonun ularning haq-huquq va manfaatlarini himoya qilishini anglatadi.

Qonun ustuvorligi va barchaga barobarligi o'zidan avval kelgan iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi va mafkuradan holiligi hamda o'tish davrida davlat bosh islohotchi bo'lishi lozimligi haqidagi tamoyillar bilan bevosita bog'liq. Zero, iqtisodiyotni isloh qilishda, rivojlantirishda ham, iqtisodiy siyosatning turli yo'nalishlari ham qonunga tayaniladi. Davlat bosh islohotchi sifatida qonun chiqarish, ijroiya va nazorat ishlari bilan shug'ullanadi, shuningdek, u ijtimoiy

barqarorlik, huquq tartibot, jamiyat a'zolari qonuniy manfaatlari ta'minlanishining asosiy kafolati bo'ladi. Agar davlatning bosh islohotchi sifatidagi roli iqtisodiy yuksalish, liberallashtirish jarayonida pasayib borsa, qonun chiqarish va huquq tartibotni, jamiyat a'zolari qonuniy manfaatlarini ta'minlash borasidagi roli doimo ortib boraveradi. Bu ikki jarayon aslida dialektik birlikni tashkil etadi va ularni islohotlar jarayonida o'zaro ajratish mumkin emas. etishmovchilik xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni ham, fuqarolarni ham ishini bitirish uchun turli yo'llarni, shu jumladan, noqonuniy aylanma yo'llarni izlashga majbur etadi. Korruptsiya va poraxo'rlik uchun sharoit vujudga keladi. Masalani hal qilishda o'rta tushgan vositachilar ham o'z ulushini oladi.

Iqtisodiy etishmovchilik mavjud joyda suiiste'molchilik hech qachon barham topmaydi. Mehnat ham munosib taqdirlanmaydi. Natijada daromadlarni noqonuniy va stixiyali qayta taqsimlash holatlari davom etaveradi. Oddiy qilib aytganda, iqtisodiy qoloklik turli illatlarni - o'g'irlik, korruptsiya, poraxo'rlik, qo'shib yozish, tashmachilik, yashirin iqtisodiyotni va odam savdosini, boshqa jinoyatlarni ham keltirib chiqaraveradi. Jamiyatning iqtisodiy hayotida, odamlarning moddiy munosabatlarida qonun ustuvorligi ko'p hollarda ta'minlanmay qoladi.

Kuchli ijtimoiy siyosat olib borilishi va aholining kam ta'minlangan qismini ijtimoiy muhofaza qilish. Mazkur tamoyil ijtimoiy adolatni va islohotlar muvaffaqiyatini ta'minlashning muhim omilidir. U islohotlar ijtimoiy larzalarsiz izchil va tadriijiy o'tishiga xizmat qiladi.

Jamiyatda keskin ijtimoiy-sinfy tabaqalanib ketishining oldini olish, aksincha, iqtisodiy, ijtimoiy - siyosiy barqarorlikning negizi hisoblanadigan o'rta sinfni shakllantirish, muhtojlarga moddiy yordam ko'rsatish O'zbekiston ijtimoiy islohotlar o'tkazish va uni chuqurlashtirish konsepsiyasining asosiy tamoyillaridan biri sanalgan.

Davlat va jamiya qurilishining asosiy maqsadi - "chinakam mustaqil O'zbekiston davlatini barpo etish", "xalqchil adolatparvar jamiyatni vujudga keltirish"[1] edi.

Umuman shuni ta'kidlash joizki, davlat va jamiyatni bir tekisda uyg'un taraqqiy ettirish bu juda murakkab jarayon hisoblanadi. Ijtimoiy hayot nihoyatda murakkab va rang-barang hodisa sanaladi. U bir biri bilan uzviy, chambarchas bog'lanib ketgan, bir-biriga ta'sir ko'rsatadigan, ayni damda nisbatan mustaqil bo'lgan va ajralib turadigan sohalardan iborat. Ular o'rtasida bog'liqlik va o'zaro aloqadorlikning ba'zi nozik jihatlari, aloqalari, shakllari yaqqol ko'zga tashlanmaydi, ammo inson va jamiyat o'rtasida muhim rol o'ynaydi.

Taraqqiyotning o'zbek modelini amalga oshirishda ijtimoiy himoya masalasida va kambag'allikni bartaraf etishga ko'maklashadigan bo'shqa yo'nalishlarda ham salmoqli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, bunga tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash orqali rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish, qishloq joylari va qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun subsidiyalarni ajratish, qishloqlar hududdi infratuzilmalarini qayta zamonaviy loyihalashtirish orqali takomillashtirish, sog'liqni saqlash, ta'lim va tarbiyani yaxshilashni misol qilsak bo'ladi. Bu boradagi amalga oshirilgan islohotlardagi ijobiy o'zgarishlar yurtimizning uzoq muddatli rejalashtirilgan kambag'allikni qisqartirish dasturining muhim qismi hisoblanadi.

Aholining keng qatamlari, jamoatchilik vakillari va ishbilarmonlar, davlat organlari rahbarlari va mutaxassislari ishtirokidagi suhbat va muhokamalar, shuningdek amaldagi qonun hujjatlari, milliy va xalqaro tashkilotlarning axborot-tahliliy ma'lumotlari, tavsiyalari va sharhlarini o'rgangan holda, rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasidan saboq chiqargan holda 2017 yilning 7 fevralida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan 2017-

2021 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning besh ustuvor yo'nalish bo'yicha "Harakatlar strategiyasi" qabul qilindi.

2017 yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual va Xalq qabulxonalari tashkil etildi. 2017–2021 yillarda Prezident Virtual qabulxonasi va Xalq qabulxonalariga kelib tushgan 5 mln. 780 mingdan ziyod murojaatlar ko'rib chiqildi, shundan 3 mln. 288 mingdan ortig'i qanoatlantirildi. Murojaatlarning to'liq, o'z vaqtida va adolatli o'rganib chiqilishi natijasida ularni echimini topishi darajasi ham oshib bordi. 2017 yilda 47,5 % qanoatlantirilgan bo'lsa, 2022 yilga kelib 86,7 %ni tashkil etdi [2]. Bu shuni ko'rsatadiki, aholining yillar davomida qiynab kelgan masalalarga echim topilib, ijtimoiy adolat tiklanganidan dalolat beradi.

Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslarini rivojlantirish, davlat xizmatlari sifati va samaradorligini oshirish, unda jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalari rolini kuchaytirish yo'nalishidagi o'zgarishlar xalqimiz hayoti va ko'z o'ngida ro'y bermoqda. Qonun ustuvorligi va sud-huquq tizimini isloh qilishda «adolat qo'rg'oni»ga aylantirish maqsadida Oliy sud faoliyatini takomillashtirishga e'tibor qaratildi.

Yurtimiz imidji "dog" bo'lib kelgan "Jasliq" jazoni ijro etish koloniyasi tugatildi. Ta'kidlash joizki, Prezident SH. Mirziyoev tomonidan afv etish tizimi yo'lga qo'yilib, 2017–2021 yillarda jazosini o'tayotgan 6 mingga yaqin mahkumga afv etildi.

Qayd etilishicha, bugungi kungacha o'tkazilgan "Mehr -1, 2, 3, 4, 5» operatsiyalari doirasida Suriya, Iroq va Afg'onistonda og'ir ahvolga tushib, chorasiz qolgan 531 nafar ayollar va bolalar O'zbekistonga olib kelindi. Jumladan, «Mehr» insonparvarlik operatsiyasi doirasida 2019 yilda Suriyadan 156 nafar o'zbekistonlik, asosan, ayollar va bolalar, 2019 yilning oktyabrida Iroqdan 64 nafar o'zbekistonlik bola, 2020 yilning dekabrda («Mehr-3») Suriyadan 25 nafar ayol va 73 nafar bola, 2021 yildagi «Mehr-4» operatsiyada esa 24 nafar fuqaro Afg'onistondan hamda Suriyadan 93 nafar ayollar va bolalar O'zbekistonga qaytarilgan edi.[3] Bu naqadar davlatimizni adolat va ochiqlik bilan o'z siyosatini olib borayotganligini ko'rsatdi.

Harakatlar strategiyasining 5 yilida 3 513 nafar, faqat 2021 yilning o'zida 743 nafar shaxsga nisbatan adolat o'rnatilib, oqlov hukmi chiqarildi. 18 026 nafar shaxs sud zalidan ozod qilinib, 33 515 fuqaroga nisbatan asossiz qo'yilgan moddalar ayblovlari olib tashlandi yoki o'zgartirildi.

Yoshlar bandligini ta'minlash, muammolarini hal etishga qaratilgan «Yoshlar daftari» va «Yoshlar dasturlari» joriy qilindi. Tizimni raqamlashtirish, yoshlarga berilayotgan imtiyozlar adolatli va shaffofligini ta'minlash bo'yicha joylarda amalga oshirilayotgan ishlarni monitoring qilib uchun «yoshlardaftari.uz» yagona elektron platformasi ishga tushirildi. Ushbu platforma orqali noma-nom ishlanib, birorta yosh e'tibordan chetda qolib ketmaydi.

Shuningdek, so'nggi yillarda mamlakatda diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish chora-tadbirlarini amalga oshirishdagi yondashuvlar konseptual jihatdan qayta ko'rib chiqildi. Asosiy e'tibor aholi o'rtasida profilaktika va tushuntirish ishlarini faol olib borishga qaratilib, sa'y-harakatlar «jaholatga qarshi ma'rifat» degan g'oya atrofida faoliyat olib borilmoqda.

Yurtimizda millatlararo totuvlikni ta'minlash borasida fuqarolar orasida o'zaro hamjihatlik yanada mustahkamlanib, millatlararo va konfessiyalararo muloqotning mexanizmlari

takomillashtirildi hamda fuqarolar erkinliklarini kengaytirishning huquqiy va tashkiliy asoslari mustahkamlandi. O'zbekiston Respublikasi hududida millatidan, dinidan qat'iy nazar yashayotgan barcha fuqarolar teng va adolatli sharoitlar yaratilib, hamjihatlikda harakat qilmoqdalar.

Harakatlar strategiyasining mantiqiy davomi sifatida, YAngi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi O'zbekistonni keyingi 5 yilda rivojlantirishning 7 ta ustuvor yo'nalishi doirasida 100 ta maqsadga erishishga qaratilgan. Ushbu maqsadlarga erishish yo'lida amalga oshiriladigan sa'y-harakatlarimizni ham belgilangan. Bu o'z navbatida, sifat-samaradorlik va natijadorlikni oshirishga xizmat qiladi. Oddiy tushuntiradigan bo'lsak, rejalashtirilgan barcha islohotlar natijadorligi taraqqiyotning maqsadlariga erishganlik darajasi bilan baholash orqali aniqlash tizimi joriy etilmoqda.

Bu esa o'z-o'zidan aholining davlat organlariga nisbatan munosabati tubdan o'zgartirib, xalqning faolligi, islohotlarga ishonchi va shaxsiy daxldorligini kuchaytirmoqda. Eng muhimi, barcha fuqarolar davlat organlariga to'g'ridan-to'g'ri masala qo'yish imkoniyatlari yaratildi.

Ushbu dasturiy hujjatda yaqin va o'rta istiqbolda mamlakatimizning rivojlanish tendensiyalari qanday bo'lishi, bu boradagi ustuvor vazifalar belgilangan. «Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari» degan tamoyil asosida islohotlarning uzviyligi va davomiyligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Harakatlar strategiyasi har bir sohada ulkan islohotlarni amalga oshirish bilan boshlangan bo'lsa, Taraqqiyot strategiyasida esa mazkur islohotlar uzviyligi ta'minlangani holda davom ettiriladi, to'plangan katta tajriba va imkoniyatlar asosida islohotlar yanada qat'iylik va jadallik bilan takomillashtirilib boriladi.

Xususan, kelgusi besh yilda maktablarda qo'shimcha 1 million 200 ming o'quvchi o'rni yaratiladi hamda darsliklar yangilanadi. Davlat va xususiy bog'chalarni ko'paytirish orqali maktabgacha ta'lim qamrovi 80 foizga etkaziladi. Oliy o'quv yurtlarining nufuzli xalqaro reytinglarga kirishi, xususiy sheriklik asosida 100 ming o'rinli talabalar turarjoyi barpo etilishi xam muxim vazifalardan. SHuningdek, birlamchi tibbiy xizmatlar sifatini oshirish, moddiy-texnika bazasini mustaxkamlash, raqamli tibbiyotni keng joriy qilish rejalashtirilgan. Dori vositalari va tibbiy buyumlar uchun budjetdan ajratiladigan mablaglar 3 baravar oshirilishi belgilandi. Ma'naviyat soxasiga oid chora-tadbirlarda 12 mingdan ziyod kutubxonalar imkoniyatlaridan samarali foydalanish ko'zda tutilgan.

Xulosa qilib, shuni aytish mumkinku, Mazkur strategiyaning muhim va tarixiy jihatlaridan biri shundaki, u barcha islohotlarning bosh mezoni bo'lgan "Inson qadri uchun" degan tamoyil ruhi bilan sug'orilgan. Oddiy qilib aytganda, strategiya kelajakka qat'iy ishonch va katta umidlar bilan qarayotgan har bir fuqaroni hayotidan rozi qilish maqsadini ko'zlaydi. Asosiysi, unda belgilangan yo'nalishlardagi vazifalar yaqin istiqbolda amalga oshadi. Odamlar uning samaralarini qisqa fursatlarda o'z hayotlaridagi o'zgarishlar misolida ko'rishlari, shubhasiz.

Taraqqiyot strategiyasining har bir bosqichini amalga oshirishda jamoatchilik nazorati ishtirokining kuchaytirilayotgani, eng avvalo ushbu tashkilotlarning o'z faoliyatida samaradorlikka erishishga xizmat qilsa, bu bilan aholining davlat organlari faoliyatidan qoniqish hissini shakllantirishga turtki bo'ladi. Ushbu orqali masalalarni adolatli, shaffof va ochiq jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirish imkonini beradi.

Taraqqiyot strategiyasida belgilangan maqsadlarni to'laqonli amalga oshirishda barchamizdan mustahkam iroda va qat'iy intizom, bor imkoniyatlarni to'la safarbar qilish

talab etiladi. Albatta, bunda har birimiz faol bo'lishimiz, bir kuch, bir qudrat bo'lib Yangi O'zbekistonni barpo etishda o'z hissamizni qo'shishimiz lozim.

References:

1. I.Karimov. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. Asarlar, 1-jild, e., "O'zbekiston", 1996 y., 38-b.
2. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. O'zbekiston nashriyoti. Toshkent-2021 y. 464 b.
3. <file:///C:/Users/User/Downloads/arakatlar-strategiyasi-bilan-besh-yil-islo-otlar-sar-isobi.pdf>
4. <https://www.gazeta.uz/uz/2021/04/30/mehr/>
5. A.Erkayev. O'zbekiston yo'li (Prezident I.Karimovning islohotlar nazariyasi haqida mulohazalar) / -T.: "Ma'naviyat", 2011.-272 b.
6. Sobirovich, T. B. (2023). Manifestations of Moral Threats in the Ideosphere of Uzbekistan and Their Prevention Strategy. Asian Journal of Basic Science & Research, 5(1), 103-108.
7. Sobirovich, T. B. (2023). Basic Criteria for Building the Third Renaissance in Uzbekistan. Asian Journal of Applied Science and Technology (AJAST), 7(1), 149-157.
8. Sobirovich T. B. National Revival and Development Idiosphere of Uzbekistan. – 2023.
9. Sobirovich, T. B. (2023). MANIFESTATION OF CIVIL SOCIETY IN THE IDEOSPHERE OF UZBEKISTAN. Innovative Society: Problems, Analysis and Development Prospects, 89-92.
10. Sobirovich, T. B., & Norman, Z. D. M. (2023). Harmony of National and Universal Values in Uzbekistan. Harmony, 7(1), 08-16.